



XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2022 - yil 23 - aprel

VI-65-87-7-105-K/22

Urgut tuman hokimligi

Jinoyat va Fuqarolik ishlari bo'yicha Urgut tumani sudi raislari hamda Toyloq tumanlararo iqtisodiy sudi raisining 2022-yilning I choragi davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi axborotlari haqida

Jinoyat va Fuqarolik ishlari bo'yicha Urgut tumani sudi raislari hamda Toyloq tumanlararo iqtisodiy sudi raisining 2022-yilning I choragi davomida odil sudlovni amalga oshirish, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishni amalga oshirishga doir faoliyati to'g'risidagi axborotlari tinglanib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jinoyat va Fuqarolik ishlari bo'yicha Urgut tumani sudi raislari hamda Toyloq tumanlararo iqtisodiy sudi raisining 2022-yilning I choragi davomida amalga oshirgan ishlari bo'yicha axborotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi (F.Xudayberdiyev), Fuqarolik ishlari bo'yicha tuman sudi (T.Rustamov) va Toyloq tumanlararo iqtisodiy sudi (O'.Muradov)larga:

sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

sudlarning faoliyatini erkinlashtirish, ularning mustaqilligini amalda ta'minlash;

sudlar tomonidan sud ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyotini har chorakda e'lon qilishga alohida e'tibor qaratish;

sud jarayonida ochiqlik, oshkoralik va adolat tamoyillariga qat'iy amal qilinishini nazorat qilish;

sud qarorlarining sifatini yaxshilash, har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilinishiga erishish maqsadida yuqori instansiya sudlari tomonidan sud qarorlarining o'zgartirilishi va bekor qilinishi sabablarini tahlil qilib, sud qarorlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashiga ma'lumot taqdim qilish;

sud-huquq masalalari bo'yicha, korrupsiya holatlari va unga qarshi kurashish to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan hujjatlar va boshqa materiallarni o'rganish natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish, mazkur ishlarning natijalari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilib borish;

fuqarolarga sudlarga nisbatan ishonch hissini uyg'otish, sud jarayonlarida adolat tamoyillarini to'laqonli ta'minlash, aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida mahalla fuqarolar yig'inlarida uchrashuv, davra suhbatlari tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari orqali murojaatlar oshgan, huquqbuzarliklar ko'paygan soha va tarmoqlar mutasaddilari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, hokimlik, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;

sayyor sud majlislariga xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi deputatlarini taklif qilish tavsiya etilsin.

3. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi (F.Xudayberdiyev)ga:

oshib borayotgan jinoyat turlari bo'yicha alohida reja belgilab, har bir jinoyat ishini va u bo'yicha chiqarilgan sud qarorini mahalla raisi, profilaktika inspektori, faollar va jamoatchilik ishtirokida joyida muhokamalar qilish tavsiya etilsin.

4. Fuqarolik ishlari bo'yicha tuman sudi (T.Rustamov)ga:

oilaviy-mulkiy nizolarni ko'rib chiqishda mediatorlik instituti imkoniyatlaridan foydalanish;

oilaviy nizolarni deputatlar ishtirokida hal etish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

5. Toyloq tumanlararo iqtisodiy sudi (O'.Muradov)ga:

iqtisodiy sudda nizolarni hal qilishda sudgacha kelishuv bitimi yoki nizolarni hal qilishning muqobil usullarini tuzishga erishish, bunda hakamlik

sudi va boshqa institutlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish choralari ko'rish;

eng ko'p uchrayotgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar yuzasidan chiqarilgan qarorlarga tushuntirish berish, bunday tushuntirishlarni ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka yetkazish tavsiya etilsin.

6. Tumani Ichki ishlar boshqarmasi (Z.Mamadoliyev)ga ikki hafta muddatda xalq deputatlari Urgut tumani Kengashiga mahallalarda qo'shmachilik, ichkilikbozlikning oldini olish, bu boradagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yil yakunigacha bo'lgan davrga mo'ljallangan aniq chora-tadbirlar rejasini taqdim qilsin;

oshib borayotgan jinoyat turlari va ularning keltirib chiqargan oqibatlar to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilib, bunday turdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha zarur choralarni ko'rsin.

7. Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Yuldoshev)ga:

jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha tuman sudi raislarining bergan axborotlari mazmuni va ular bo'yicha sessiya ishida chiqarilgan xulosalarni jamoatchilikka yetkazish choralari ko'rish;

jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi bilan hamkorlikda har bir jinoyat ishini va u bo'yicha chiqarilgan sud qarorini mahalla raisi, profilaktika inspektori, faollar va jamoatchilik ishtirokida joyida muhokamalar qilinishini uyushtirish;

ochiq va sayyor sud majlislarida deputatlar ishtirokini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

8. Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Axmedova)ga oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy-tahliliy o'rganib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha Kengashga asoslantirilgan taklif kiritsin.

9. Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi deputatlariga:

hududiy sudlar bilan kelishilgan holda, o'zi saylangan okrugda o'tkaziladigan sayyor sud majlislarida ishtirok etish;

hududda sodir bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni mahalla raisi, profilaktika inspektori, faollari va jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish tavsiya etilsin.

10. "Urgut sadosi" gazetasi (Sh.Sanayev)ga sud organlari tomonidan odil sudlovni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib

borish tavsiya etilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Yuldoshev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



X.Rashidov